



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No6
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINING MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr.
2026-yil, iyun.*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanov Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TURIZMDA INVESTITSION MUHITNI YAXSHILASH VA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI	21
Ergashkulov Muyinjon Umedovich	
“AVTO PORLOQ KELAJAK 2020” XKNING TASHKILIY-IQTISODIY TAVSIFI VA MOLIYAVIY FAOLIYATI TAHLILI	28
Misirov Asliddin Mamasobirovich Eshdavlratov T.A.	
MOLIYAVIY HOLAT TO‘G‘RISIDAGI HISOBOT KO‘RSATKICHLARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI.....	32
Misirov Asliddin Mamasobirovich Qodirov B.	
MOLIYAVIY HOLAT TO‘G‘RISIDAGI HISOBOTNI TUZISH VA TAQDIM ETISHNING ME‘YORIYHUQUQIY ASOSLARI	36
Misirov Asliddin Mamasobirovich Saidmurodov J.N.	
“AVTO PORLOQ KELAJAK 2020” XKD MOLIYAVIY HOLAT TO‘G‘RISIDAGI HISOBOTNI TUZISH AMALIYOTI	40
Misirov Asliddin Mamasobirovich Xalilov J.H.	
MOLIYAVIY HOLAT TO‘G‘RISIDAGI HISOBOTNING IQTISODIY MOHIYATI VA AHAMIYATI.....	45
Misirov Asliddin Mamasobirovich Xamroqulov A.X.	
GEOMETRIC FIGURE DRAWING USING MODERN PROGRAMMING LANGUAGES.....	49
Daminova Barno Esanovna Asrorova Nilufar Bobur qizi Botirova Shodiya Turdimurod qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIBBIY XIZMAT KO‘RSATISHNI TASHKIL ETISHNING XORIJ TAJRIBALARI	56
Baxtiyorova Vasila Muzaffarovna	



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIBBIY XIZMAT KO'RSATISHNI TASHKIL ETISHNING XORIY TAJRIBALARI



Baxtiyorova Vasila Muzaffarovna
Ma'mun universiteti Iqtisodiyot yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Raximova Sadoqat Mamutovna
Ma'mun universiteti PhD, dotsent

Annotsiya. Ushbu maqolada tibbiy xizmat ko'rsatishni tashkil etishda xorijiy mamlakatlar tajribasidan foydalanish orqali mamlakat sog'liqni saqlash tizimida xizmatlar sifati, kafolatlanganligi va samaradorligini oshirish masalalari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: sog'liqni saqlash, tibbiy faoliyat, tibbiy xizmat, ijtimoiy samara, iqtisodiy samara, Beveridj tizimi, Bismark tizimi.

Abstract. This article examines the issues of improving the quality, reliability, and effectiveness of services in the national healthcare system through the application of foreign countries' experience in organizing medical services.

Keywords: healthcare, medical activity, medical service, social effect, economic effect, Beveridge system, Bismarck system.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы повышения качества, гарантированности и эффективности услуг в системе здравоохранения страны на основе применения опыта зарубежных стран в организации медицинского обслуживания.

Ключевые слова: здравоохранение, медицинская деятельность, медицинская услуга, социальный эффект, экономический эффект, система Бевериджа, система Бисмарка.

KIRISH

Bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ushbu sohada ko'plab ish o'rinarining yaratilayotgani, milliy mahsulot hajmiga qo'shayotgan hissasi hamda ijtimoiy-iqtisodiy natijalari xizmatlar sohasining samaradorligini yaqqol namoyon etmoqda. Xizmat ko'rsatish tarmog'ida tibbiy xizmatlar bozori aholi salomatligini saqlash, mustahkamlash va kafolatlangan tibbiy natijaga erishish imkoniyati bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ta'rifiga ko'ra, tibbiy xizmatlar insonning muhim ehtiyojlaridan biri bo'lib, ularni iste'mol qilish natijasida insonning salomatlikka oid ehtiyojlari qondiriladi. Shu bilan birga, tibbiy xizmatlar ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarning shakllanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi [1]. Tibbiy xizmat ko'rsatish foydali faoliyat turi hisoblanadi. Biroq xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar birinchi navbatda aholi salomatligini yaxshilash, uni tiklash va mazkur faoliyatning ijtimoiy ahamiyatiga alohida e'tibor qaratishlari lozim.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tibbiy xizmatlar bozorining rivojlanishi, aholining tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari va xususiyatlari bilan bog'liq nazariy-uslubiy masalalar xorijlik iqtisodchi olimlar — J. K. Arrow, R. B. Saltman, J. Figueras, E. Pittasso, M. Saynorlarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan. Shuningdek, xizmatlar sohasida sog'liqni saqlash tizimi xususiyatlarining ayrim jihatlari MDH olimlari — I. M. Lifits, A. V. Dubinina, Yu. M. Komarov, Y. M. Belyaev, E. M. Chernenko, I. V. Taranova, R. M. Shagiixmetovlarning ilmiy izlanishlarida yoritilgan.



Respublikamizda tibbiy xizmatlar bozorini rivojlantirish va moliyalashtirishning ayrim masalalari mahalliy olimlar — M. T. Haydarov, O'. Rajabov, M. Kasimov, M. N. Umurzaqova va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida ko'rib chiqilgan [1].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tahlil, taqqoslash, umumlashtirish, statistik ma'lumotlarni o'rganish hamda ijtimoiy so'rovnoma natijalaridan foydalanilgan. Mazkur metodlar tibbiy xizmatlar bozorining rivojlanish xususiyatlarini baholash, mavjud holatni ilmiy asosda tahlil qilish va tegishli xulosalar ishlab chiqish imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tibbiy xizmatning o'ziga xos xususiyati shundaki, undan foydalanish ko'pincha kutilmagan va tasodifiy zarurat tufayli yuzaga keladi. Agar shaxs o'z salomatligini tiklashni istasa, u tibbiy xizmat iste'moli uchun alohida mablag' ajratishga majbur bo'ladi. Kutilmagan holatlarda esa tibbiy xizmat sarf-xarajatlarini qoplash uchun shaxsning to'lov qobiliyati yetarli darajada bo'lishi zarur. Aynan mana shu xususiyatlari bilan tibbiy xizmatlar bozori boshqa tovarlar bozoridan farq qiladi [2]. Aholining tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari, tibbiy xizmatlar bozorini samarali tartibga solish hamda kam ta'minlangan aholining tibbiy yordamga muhtoj bo'lganida xizmatlardan to'laqonli foydalanishini ta'minlash mazkur bozorning ijtimoiy samaradorligini ifodalaydi.

Tibbiy xizmatlar bozorini rivojlantirishda amerikalik iqtisodchilarning ilmiy qarashlari muhim o'rin tutadi. Iqtisodchi Kennet Jozef Arro "Sog'liqni saqlash farovonligi va iqtisodiyoti" nomli maqolasida tibbiy xizmatlar bozorining kamchiliklari va ziddiyatlarini izohlab bergan. Uning fikricha, tibbiy xizmat iste'molchilari to'g'risidagi ma'lumotlarning yetarli emasligi, jumladan, sug'urtalanganlar soni, kasalliklarning oldini olish maqsadida vaktsinatsiyadan o'tganlar, bemorlarga tashxis qo'yish jarayoni hamda aholining tibbiy xizmatlardan foydalanish darajasining pastligi tibbiy xizmatlar bozorining asosiy muammolaridan biri hisoblanadi. Bu holat tibbiy madaniyat darajasi bilan ham bevosita bog'liqdir. Shuningdek, tibbiy xizmatlar bozori ko'lami va doirasini aniqlash, taklif etilayotgan xizmatlar hamda talab o'rtasidagi nomutanosiblik sog'liqni saqlash sohasida xarajatlarning ortishiga olib kelishi mumkinligi o'rganilgan [3].

Zamonaviy iqtisodiyotda tadqiqotchilar L. Berri, V. Zaytaml va A. Parasuraman tomonidan tibbiy xizmat sifatining o'zgaruvchanligi, tibbiy xizmat tushunchasi hamda tibbiy xizmat samaradorligi kabi asosiy jihatlar tahlil qilingan. Iqtisodchilarning fikricha, mamlakatda tibbiy xizmatlar bozorini rivojlantirish, avvalo, ijtimoiy hodisa bo'lib, keyinchalik tibbiy xizmatlarni ko'rsatish orqali aholi salomatligini tiklash va iqtisodiy munosabatlarni shakllantirish imkonini beradi [4]. Sog'liqni saqlash tizimida ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlar bevosita inson hayoti va salomatligi bilan bog'liq bo'lib, sog'liqni saqlash sohasi salohiyatini ifodalaydi. Shu sababli mazkur soha davlat tomonidan tartibga solinadi va moliyalashtiriladi. Tibbiy xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha davlat tomonidan ijtimoiy dasturlar ishlab chiqiladi, tibbiyot tashkilotlarining ish haqi va boshqa moliyaviy resurslari ta'minlanadi [5].

Tadqiqotchilar sog'liqni saqlash sohasi xizmatlarini o'rganishda "sog'liqni saqlash", "sog'liqni tiklash", "tibbiy yordam", "tibbiy faoliyat", "tibbiy xizmat", "ijtimoiy samara" va "iqtisodiy samara" kabi tushunchalarni keng tahlil qilganlar.

Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti mutaxassislari tomonidan tibbiy xizmat ko'rsatish sifati va samaradorligini oshirish, aholining tibbiy xizmatlarga bo'lgan talabi ortishi natijasida narx-navoning haddan tashqari oshib ketishining oldini olish maqsadida sog'liqni saqlash tizimini davlat tomonidan tashkil etishning uchta asosiy turi ajratib ko'rsatiladi [6]:

1. Xususiy tibbiy xizmat tizimi;
2. Majburiy tibbiy sug'urta tizimi, ya'ni ijtimoiy sug'urta tizimi — Bismark tizimi;
3. Sog'liqni saqlashni byudjet tomonidan moliyalashtirish tizimi, ya'ni davlat tizimi — Beveridj tizimi.

Shundan kelib chiqib, tibbiy xizmatlarning umume'tirof etilgan uchta modelini xorijiy davlatlar misolida ko'rib chiqamiz.

1. Xususiy tibbiy xizmat tizimi.

Xususiy tibbiy xizmat aholiga yuqori texnologiyalar asosida sifatli tibbiy xizmatlar ko'rsatishni ta'minlaydigan, sohaga chet el investitsiyalarini jalb etishni kengaytiradigan hamda tibbiy turizmni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratadigan tizim hisoblanadi. Ushbu tizimda tibbiy xizmatlar, asosan, pullik asosda, ya'ni iste'molchining o'z mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Xususiy tibbiy xizmat tizimi, asosan, Amerika Qo'shma Shtatlari, Janubiy Afrika va Janubiy Koreya kabi qator mamlakatlarda keng rivojlangan. Ushbu mamlakatlarda xususiy tibbiy xizmatlar, asosan, aholining o'z mablag'lari yoki sug'urta tizimi orqali moliyalashtiriladi. AQSh xususiy tibbiy xizmatlar tizimining ijobiy jihatlari



sifatida shaxsiy sug'urta tizimining rivojlanganligi, yuqori sifatli tibbiy xizmatlar, shifokorlar va shifoxonalarni tanlash imkoniyatining kengligi, tibbiyot xodimlari ish haqining yuqoriligi, xususiy tibbiyot muassasalari o'rtasida raqobatning kuchliligi, shuningdek, ilmiy tadqiqotlar va yangi texnologiyalarni joriy etish darajasining yuqoriligini ko'rsatish mumkin.

2. Majburiy tibbiy sug'urta tizimi, ya'ni ijtimoiy sug'urta tizimi — Bismark tizimi.

Ushbu tizim tibbiy xizmatlar bozorini rivojlantirishni nazarda tutuvchi, davlat tomonidan tartibga solinadigan, aholining ijtimoiy kafolatlarini qo'llab-quvvatlovchi hamda barcha qatlamlar uchun tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini yaratishga qaratilgan tizim hisoblanadi. Mazkur yondashuvda tibbiy xizmat aholining ijtimoiy farovonligi, salomatligini tiklash va sog'lom jamiyatni shakllantirishning muhim omili sifatida qaratiladi. Majburiy tibbiy sug'urta tizimining asosiy afzalligi aholining kafolatlangan darajadan yuqori bo'lgan tibbiy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish imkoniyatida namoyon bo'ladi.

Ushbu ijtimoiy sug'urta tizimi, asosan, sog'liqni saqlashni sug'urta mexanizmlari orqali moliyalashtiruvchi davlatlarda qo'llaniladi. Bunday mamlakatlar qatoriga Avstriya, Belgiya, Germaniya, Italiya, Lyuksemburg, Gollandiya, Shveytsariya, Fransiya, Yaponiya va Kanada kiradi. Majburiy tibbiy sug'urta tizimi ilk bor Germaniyada 1883-yilda O. Bismark tomonidan ijtimoiy sug'urta shaklida joriy etilgan. O. Bismark aholining sog'liqni saqlash sohasidagi huquqlarini ijtimoiy kodeks normalari orqali mustahkamlashga alohida e'tibor qaratgan. Shu bois mazkur tizim "Bismark tizimi" deb yuritiladi.

3. Sog'liqni saqlashni byudjet tomonidan moliyalashtirish tizimi, ya'ni davlat tizimi — Beveridj tizimi.

Sog'liqni saqlash tashkilotlarini byudjet tomonidan moliyalashtirish tizimi Rossiyada birinchi marta 1930-yilda N. A. Semashko rahbarligida ishlab chiqilgan. Mazkur tizimda davlat sog'liqni saqlash tizimining davolash-profilaktika muassasalari aholiga davlat tomonidan kafolatlangan bepul tibbiy yordam ko'rsatadi. Bepul tibbiy yordam ko'rsatish hajmi va tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi [7].

Davlat tomonidan kafolatlangan tibbiy xizmat hajmidan ortiqcha tibbiy va boshqa turdagi xizmatlar qo'shimcha xizmatlar hisoblanadi. Bunday xizmatlar uchun aholi tomonidan belgilangan tartibda haq to'lanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tibbiy xizmatlarning ijtimoiy samaradorligi aholi salomatligi darajasi, tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari, xizmatlar qamrovi va ularning kengligi bilan belgilanadi. Tibbiy xizmatlar bozorini rivojlantirishga mulkchilikning xilma-xil shakllari va boshqaruv turlarining mavjudligi, bozor ishtirokchilarining ko'pligi, barcha tibbiyot muassasalari va tijorat tashkilotlarining mavjud resurslardan teng foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi, bozorning har bir ishtirokchisi tibbiy xizmatlar bozori to'g'risida yetarli ma'lumotga ega bo'lishi hamda talab va taklif muvozanati asosida erkin bozor narxlaridan foydalanish kabi omillar ta'sir ko'rsatadi.

Tibbiy xizmatlarning iqtisodiy samaradorligi sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish orqali milliy daromadni oshirishga hissa qo'shishi, aholi salomatligini mustahkamlashi hamda umr ko'rish davomiyligini oshirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi. Iqtisodiy samaradorlik aholi salomatligini saqlash va yaxshilashga ta'sir ko'rsatish, mehnat unumdorligini oshirish, sog'liqni saqlash xarajatlarini kamaytirishda ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy ta'minot mexanizmlaridan samarali foydalanish hamda milliy daromadning o'sishiga hissa qo'shish kabi jihatlarni qamrab oladi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan kelib chiqib ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda inson manfaatlari, uning sog'lig'i va turmush darajasini yanada mustahkamlashga xizmat qiluvchi tibbiy xizmatlar bozorini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Tibbiy xizmatlar sifati, kafolatlanganligi va ulardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish aholining tibbiy ehtiyojlarini to'laqonli qondirishga xizmat qiladi. Shu bois tibbiy xizmatlar bozorining holatini yaxshilash, uni samarali tartibga solish va zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish davlat ijtimoiy siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Владимирова Р. Е. Медицинские услуги: понятие и особенности // Современные исследования социальных проблем: электронный научный журнал. — 2017. — № 3(39). — Библиотека eLIBRARY.RU.
2. Швец Ю. Ю. Зарубежный опыт обеспечения качества медицинских услуг // Transport Business in Russia. — 2016. — № 6(51).
3. Rayimberdiyeva O. R. Sog'liqni saqlash muassasalarini moliyaviy ta'minlashni tashkil qilish: iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. — Toshkent: GulDU, 2001. — 156 b.



4. Raxmonov D. A. O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlash muassasalarini moliyalashtirishni takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi, 2012. — 22 b.
5. Hamdamov Sh. Xorijiy mamlakatlarda sog'liqni saqlash sohasini moliyalashtirishning asosiy xususiyatlari // Moliya. — Toshkent, 2014. — № 6. — B. 128–135.
6. Djumanazarov O. A. Sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish manbalari va ularni barqarorlashtirish: dissertatsiya. — Toshkent, 2017.
7. O'zbekiston Respublikasining statistik axborotnomasi. — Toshkent, 2017–2019.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

6-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>